

O`zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O`zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi
*Rasulova Dilnozaning "Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" asaridagi masnaviyda
Husayn Boyqaro timsoli" mavzuida yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F.f.n. S.Jumayeva

Reja:

KIRISH

I. BOB. Alisher Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro obrazi tasviri

I.1. “Xazoyin ul-maoniy”da Husayn Boyqaro talqini.

I.2. Shoir devonlari debochalarida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari tasviri.

II. BOB. “Tarixi muluki Ajam” asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro fazilatlarining tasvirlanishi

II. 1. Masnaviyda ilgari surilgan gʻoyalar va ularning Husayn Boyqaro obraziga muvofiqligi.

II. 2. Masnaviyda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarining yoritilishi.

XULOSA

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini tobora kenroq qamrab olmoqda. Bunda xalqimizning asriy maʼnaviy qadriyatlarini tiklash, uzoq va yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni mustaqillik mafkurasi asosida xolis oʻrganishga ham katta eʼtibor qaratilmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek, “Xalqning maʼnaviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va oʻziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yoʻlida muvaffaqiyatli ravishda olgʻa siljitishda hal qiluvchi, taʼbir joiz boʻlsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”¹.

Mumtoz sheʼriyatdagi anʼanaviy obrazlar, ramz va timsollarni alohida shoir asarlari, xususan, lirikasi asosida tahlil etish oʻsha ijodkor dunyoqarashi, badiiy mahorati, isteʼdodi qirralarini teranroq idrok qilish va kashf etishda qoʻl keladi. Shubhasiz, oʻzbek adabiyoti tarixining har bir davriga oid shoirlar ijodiy merosini anʼanaviylik, oʻziga xoslik va

¹ Karimov. I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008. 39-bet.

individuallik nuqtai nazaridan tadqiq etish lozim. Hozirgi davrda milliy va tarixiy-ma'naviy merosimizga e'tiborning ortganligi, o'zlikni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bois muhim tadqiqotlarga ehtiyoj kuchlidir. Zero, o'zlikni anglash o'tmish qadriyatlarimiz va tarixni bilishdan boshlanadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, uni vorisiylikka tayangan holda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan, madaniyatimiz, tariximizda chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiy lirikasiga an'anaviy obrazlar, ramz va timsollar ta'sir etganini o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish – shoir ijodining yangi qirralarini yoritish, shoirning individual uslubi, tili va badiiy-estetik mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy ijodida tarixiy shaxslar, xususan, Husayn Boyqaro obrazi, bu tarixiy siymo xarakteriga xos xususiyatlar, uning siymosida odil podshoh obrazini gavdalandirish, uning o'y-xayoli, dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabatini ifodalash, psixologik holatini tasvirlash jihatidan ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroga bag'ishlangan Masaviysida Husayn Boyqaro xarakteriga xos xususiyatlarning qalamga olinganligi, unda shoir dunyoqarashi, estetik prinsiplari, odil podshoh va adolatli hukmdor haqidagi o'y-fikrlarining aks etganligi, Husayn Boyqaro ma'naviy-psixologik holatining ochib berishdagi roli yoritilganligi, shoir ijodida Husayn Boyqaro obrazlarining ahamiyati ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslik ilmida sobiq sho'rolar tuzumi davrida amalda bo'lgan g'ayriilmiy siyosat o'tmish ijodkorlarga munosabat va ular yaratgan badiiy merosni baholashda ham butun salbiy oqibatlarni yuzaga chiqargan edi. Unda ko'p hollarda ijodkor asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini, sof adabiy-ijodiy belgilar emas, balki ijodkor shaxsining kelib chiqishi, uning jamiyatdagi qaysi sinf (tabaqa, guruh)ga mansub ekanligi bosh mezon qilib olinar, xuddi shu dalillarga ko'ra uning adabiyotimiz tarixidagi o'rni belilanar edi. Birinchi galda Sulton Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Amir Umarxon, Ma'dalixon, Muhammad Rahimxon kabi hukmdorlar ijodkorlar meroslariga nisbatan ana shunday adolatsiz va mohiyatan g'ayriilmiy yondashish oqibatida "Husayniy", "Bobur", "Shayboniy", "Ubaydiy", "Amiriy", "Xon", "Feruz" adabiy taxalluslari bilan qalam tebratgan, har bir "sohibi devon" darajasiga ko'tarilgan iqtidorli ijodkorlar adabiyotimiz tarixidan chetga surildi, meroslari batamom unutildi yoki bir tomonlama hamda yuzaki o'rganildi va asosan, kamsitilib baholandi. Vaholanki, nomlari zikr etilganlarning har biri yirik ijodkor bo'ligina qolmay, ayni zamonda, adabiyot va san'atning qadr-qimmatini aziz baholovchi, ijod va hunar ahlining jonkuyar

homiysi sifatida ham o'z davri adabiy-madaniy hayotida tanilgan shaxslardir. Bu fikr, xususan, Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy ijodiy-ijtimoiy faoliyatiga to'la muvofiqdir.

Ana shunday masalalardan yana biri Navoiy va Husayn Boyqarolarning o'zaro ijodiy munosabatlari va hamkorligi, o'zaro o'rganish-ta'sirlanish darajasi va shakllari masalasidir. To'g'ri, Hodi Zarif, V.Zohidov, S.G'aniyeva kabi mualliflar tadqiqotlarida bu haqda diqqatga loyiq ayrim fikrlar bildirilgan. Ammo bu masalaga e'tibor, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, ya'ni davlat arbobi va hukmdor, ijodkor va hukmdor, mutafakkir Navoiy va iste'dodli ijodkor o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tarzida mustaqillikka erishilgandan keyingina o'rganilmoqda¹.

Ma'lumki, Navoiy Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelgandan keyin yozgan deyarli barcha asarlarida, tuzgan hamma devonlarida uni insof-diyonatli, adolatli, raiyatparvar shoh, adabiyot va san'at, ilm va hunar ahliga saxovatli homiy sifatida qayta-qayta madh etgan va ta'kidlash kerakki, bunday ta'rif – baho uchun ulug' shoir yetarli va jiddiy asoslarga ega bo'lgan. Navoiy o'la ishnok va chin samimiyat bilan "Xamsa"ni tashkil etuvchi beshal dostonida ham, "Lison ut-tayr", "Tarixi mulki Ajam" asarida va boshqa yirik-kichik asarlarida shoh Sulton Husayn Boyqaro madhiga maxsus boblar, katta-katta parcha va lirik chekinishlar ajratib, ularda ulkan davlatning elparvar, dono va adolatli hukmdori sifatida ta'riflar bitadi. Keyingi yillarda Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlari, shoirning o'z do'sti va homiysi Husayn Boyqaroga bag'ishlab yozgan sarlari keng tahlil qilinmoqda, har tomonlama o'rganilmoqda². Navoiyning Husayn Boyqaroga bag'ishlangan, uning ta'rif-tavsifi berilgan, Husayn Boyqaroning o'ziga xos fazilatlarini ta'rif etilgan asarlari jumlasiga "Tarixi muluki Ajam" asari oxirida berilgan masnaviyini ham kiritishimiz mumkin. Ma'lumki, "Tarixi muluki Ajam" asari Eron podshohlari tarixiga bag'ishlangan. Ammo asar muallifi o'z oldiga asosiy vazifa qilib podshohlarning shaxsiy hayotlarini yoritishini emas, balki ularning jamiyatga, xalqqa mamlakat manfaatiga munosabatlarini ko'rsatishni qo'ygan. Asar nihoyasida Alisher Navoiy Husayn Boyqaro podshohligining tarixini, umri vafo qilsa, alohida tarixiy asar sifatida yoritishni mo'ljallaganini aytadi. Sulton Husayn Boyqaroga maxsus masnaviy bag'ishlaydi. Aytish mumkinki, ana shu masnaviyda shoirning shohlar haqidagi qarashlari, podshohning qanday bo'lishi kerakligi haqidagi o'z fikrlari o'rin olgan. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetovning "Navoiy dahosi" kitobida shoirning "Tarixi muluki

¹ Abdug'afurov A.Navoiy va Husayniy / Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 132-140 betlar; Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, .

² Karimova F. "Xazoyin ul-maoniyy"da Husayn Boyqaro talqini / Navoiyga armug'on. 3-kitob. Toshkent, 2003; O'sha muallif. Debochalarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari in'ikosi / Navoiyga armug'on. 4-kitob. Toshkent, 2004.

Ajam” asari keng tahlil qilingan bo`lsa-da<sup>1</sup>, Husayn Boyqaroga bag`ishlangan ellik baytli ushbu masnaviy adabiyotshunoslikda yetarli darajada o`rganilmagan.

BMIning maqsad va vazifalari. BMIning asosiy maqsadi Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asardagi masnaviyda Husayn Boyqaro timsolini yaratishdagi mahorati, unga aloqador ramziy obraz va timsollarni tadqiq etish, Husayn Boyqaro obrazini gavdalantirishda shoir e`tibor qilgan jihatlarni tadqiq qilish, shuningdek, Alisher Navoiy ijodida Husayn Boyqaroga bag`ishlangan boshqa lirik parchalar va boblarni tahlil qilishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga erishdik:

- Husayn Boyqaro obrazining Alisher Navoiy ijodidan joy olishini o`rganish;
- Alisher Navoiy ijodidagi Husayn Boyqaroga bag`ishlangan she`rlar va maxsus boblarni alohida guruhlariga ajratish;
- Husayn Boyqaro siymosining Alisher Navoiy ijodi va faoliyatidagi ahamiyatini masnaviyda ifoda etilganligini ochib berish;
- Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlarini tadqiq etish, ijodkor va hukmdor, davlat arbobi va hukmdor, buyuk mutafakkir va iste`dodli shoir chiziqlari ostida bu ikki tarixiy shaxs munosabatlarini tadqiq qilish;
- masnaviyda ta`kidlangan fikralarga tayanib, Alisher Navoiy ijodining ravnaq topishi va taraqqiy etishida Husayn Boyqaro faoliyatining o`rni va ahamiyatini ochib berish;
- “Tarixi muluki Ajam” asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaroga xos fazilatlarining qayd etilishiga diqqat qilish va ularni guruhlash.

BMIning ilmiy yangiligi. Alisher Navoiy ijodining gullab-yashnashi va taraqqiy etishida Husayn Boyqaro xizmatlari biyoqisdir. Shoir buni o`zining qator asarlarida qayta-qayta tilga oladi. Ayniqsa “Tarixi muluki Ajam” asarida berilgan masnaviy Husayn Boyqaroga qo`yilgan badiiy haykal desak mubolag`a qilmagan bo`lamiz. Ammo bu sohada maxsus bir BMI amalga oshirilmagan. Ana jihat ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodida Husayn Boyqaroga bag`ishlangan, uning adolatli hukmdor va odil podshoh ekanligin ta`kidaydigan g`azallar, baytlar, lirik parchalar hamda maxsus boblar talaygina. Shular qatorida “Tarixi muluki Ajam” asarida berilgan masnaviy ham alohida ahamiyatga ega. Bu masnaviyni tahlil qilish, uni har tomonlama o`rganish jarayonida ham bu ikki tarixiy shaxs munosabatlari yorqin namoyon bo`ladi. Ana shu jihat ham ishning ilmiy yangiligini belgilaydigan omillardan biridir.

BMIda shoirning odil podshoh va adolatli hukmdor haqidagi qarashlari Husayn Boyqaro obrazini yaratish mahorati bilan bog`liqlikda ochib berilgan, shoirning ijtimoiy va

¹ Hayitmetov A. Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asari haqida / Navoiy dahosi. Toshkent, 1970.

siyosiy voqelikka munosabati ko'p hollarda Husayn Boyqaro timsoli orqali ifodalanishi ilmiy dalillangan.

BMIning manbalari. Ushbu BMIning tayyorlashda Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plamining o'n oltinchi tomi tadqiqot manbai sifatida olindi. Shuningdek, ba'zi o'rinlarda qiyos uchun shoirning boshqa asarlariga ham murojaat qildik.

BMIning metodologik asosi va ilmiy metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid asarlari hamda o'zbek adabiyotshunoslarining fundamental tadqiqotlari BMI metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. BMIda qo'yilgan masalalarni yoritishda A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, Yo.Ishoqov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.G'aniyevlarning mumtoz adabiyotni tadqiq etish, Alisher Navoiy ijodida Husayn Boyqaro siymosining o'rnini va ahamiyati haqidagi ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

BMI ning nazariy va amaliy ahamiyati. BMI natijalari mumtoz adabiyot namunlari tarkibida yashirin qolib kelayotgan g'oyaviy-badiiy sir va haqiqatlarni yanada yorqinroq ochish, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga daxldor ma'no-mohiyatni to'g'ri anglashga imkon beradi.

BMIning materiali oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari, kollej va akademik litseylarda O'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha kurs ishlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari, seminar mashg'ulotlari yozishda yaxshi samara beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, to'rt faslni o'z ichiga olgan ikki bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 43 bet.

I-BOB. Alisher Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro obrazi tasviri

1.1. “Xazoyin ul-maoniy”da Husayn Boyqaro talqini.

Alisher Navoiy lirikasida shoir shaxsiyati, zamon va zamondoshlariga boʻlgan munosabatlari ham oʻz aksini topgan. Chunki Navoiy ijodi oʻz davri siyosatidan, falsafiy dunyoqarashidan hech qachon uzoq boʻlmagan. Xususan, shoir sheʼriyatida Navoiy va Husayn Boyqaro oʻrtasidagi munosabatlar juda koʻp qirralari bilan namoyon boʻlgan.

Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqa asarlarida Husayn Boyqaro madhiga maxsus boblar, katta-katta lirik parchalar bagʻishlaydi. Ularda ulkan davlatning elparvar, dono va adolatli hukmdori sifatida taʼrif-tavsif etadi. Buning boisi, albatta, Husayn Boyqaroni komil podsho timsoli sifatida koʻrish istagi edi, desak xato qilmagan boʻlamiz. Ana shu istak “Xazoyin ul-maoniy”dagi gʻazallarda ham oʻz ifodasini topgan.

Husayn Boyqaro madhi va taʼrif-tavsifi bilan bogʻliq gʻazal va baytlarda “Xazoyin ul-maoniy” debochasidagi singari koʻproq koʻtarinki ruh mavjud. Yaʼni ularda Husayn Boyqaroni adolatparvar va saxovatli, maʼrifatparvar hukmdor sifatida madh etish kuchli. Shuningdek, “Xazoyin ul-maoniy”da Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro oʻrtasidagi biografik oʻrinlarni yorituvchi gʻazallar va baytlar alohida oʻrin egallaydi. Xususan, koʻpchilik gʻazallarda Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy sheʼrlarining islohotchisi sifatidagi fazilatlarini ham oʻz ifodasini topgan. Shulardan kelib chiqqan holda Husayn Boyqaro haqidagi gʻazal va baytlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Husayn Boyqaro adolatparvar shoh sifatida madh etuvchi gʻazal va baytlar.
2. Shoh va shoir oʻrtasidagi munosabatlar ifodasi boʻlgan gʻazal va baytlar.
3. Husayn Boyqaroning zukko sheʼrshunos sifatidagi fazilatlarini aks ettiruvchi gʻazal va baytlar.

Alisher Navoiy deyarli barcha gʻazallarida adolatli va maʼrifatparvar podsho hamda markazlashgan davlat uchun kurash gʻoyasini ilgari suradi. Navoiyning fikricha,

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, yurt osoyishtaligi, avvalo, hukmdorning o`ziga, uning shaxsiy fazilatlariga bog`liq.

Navoiy Husayn Boyqaro hokimiyat tepasiga kelgandan keyin yozgan deyarli barcha asarlarida, lirik she`rlarida uni adolatli, vatanparvar shoh, adabiyot va san`at, ilm va hunar ahliga saxovatli homiy sifatida qayta-qayta madh etadi, ta`rif-tavsif qiladi, u bilan faxrlanadi. Bu ta`rif-tavsiflarda haqiqat ham, mubolag`a ham mavjud. Navoiy bu o`rinda bir tomondan, shohning ijobiy fazilatlarini ulug`lasa, qo`llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan hukmdor xarakteridagi ayrim salbiy qirralarni maqtoiv yo`li bilan bartaraf etishga intiladi. Navoiyning fikricha, shoh G`oziyning fazilatlarini behisob. Ularni qog`ozga tushirish ko`ngil istagidir:

Kim tuzay mastona Shohi G`oziy avsofida savt,

Bu ko`ngul gar bo`lsa, o`z holidan gar ham bo`lmasa.

Shoir bir baytda shoh vaqti kelganda shohlikdan kechib, darvesh bo`lishga tayyor turgandagina uning podshohligi hech kamchiliksiz va doimiy bo`lishini ta`kidlaydi:

Shohg`a shohlig` musallamdir agar bo`lg`ay mudom

Shohlik tarkin qilib, darvesh o`lur niyat anga.

Navoiy ta`kidlashicha, faqat Husayn Boyqarogina “shohlik tarkin qilib”, darveshlarcha hayot kechirmoqqa hamma vaqt tayyor bo`lgan birdan bir podshohdir. Shohlik Husayn Boyqaroning “suvrati”gina xolos. Uning “siyrati” (ichki dunyosi, fazilatlarini) esa darveshlikdir:

Mumkin ermas shohlar ichra bo`yla niyatlig`, magar,

Shohi G`oziy kim, muyassar bo`ldi bu davlat anga.

Shohlar darveshi, darveshlar shohiki bor,

Shohlik suvrat anga, darveshlik siyrat anga.

“Shoh va darvesh” (shoh va gado) masalasiga doir bu falsafiy g`azalda ham Navoiy Husayn Boyqaroni kamtar, adolatparvar va kambag`alparvar bo`lgani uchun ham shunday martaba-yu davlatga erishganligini ta`kidlaydi. Ta`kidlaydigina emas, balki elparvar, adolatli hukmdor bo`lishga targ`ib ham etadi. Navoiy mamlakatni zakovatli, adolatli, olijanob podshoh boshqarishi kerak, deb hisoblaydi. Ana shunday dono va odil podshoh Husayn Boyqarodir. Shoh G`oziyning adolatidan zulm eshigi hamisha berkdir. Ya`ni, Sulton Husayn mamlakatni hech qachon zulm bilan boshqarmaydi:

Ey Navoiy, ermas ul zot ko`zi uyqudakim,

Zulm eshiga Shohi G`oziy adlidan masdud erur.

Shohning odilligi tufayli uning dargohi beva-bechorayu faqirlarga, barcha hojatmandlarga panoh, xonlarga esa sig`inadigan joy bo`ldi. Shuning uchun Shoh G`oziy eshigini Tangrining o`zi qo`llasin:

Shohi G`oziy eshigin tengri base tutsinkim,
Notavonlarga panoh o`lduyu, xonlarga maloz.

Husayn Boyqaro birinchi galda faqirlarning boshini silaydigan adolatli podshoh bo`lganligi uchun ham unga shunday davlat va daraja nasib etgan. Osmondek ulug` martabaga erishgan Sulton Husayn Boyqaro Navoiyning ham ohu-dodlariga yeta oladi:

Navoiy ohi navosozi shoh Abulg`oziy,
Sipehr martaba Sulton Husayn Boyqaro.

Navoiy ana shu bois Shoh G`oziy dargohining ostonasini Ka`bani tavof etish bilan tenglashtiradi:

Ey Navoiy Ka`bai maqsud vasfin istasang,
Shohi G`oziy qasrining dargohi oliyshonin o`p.

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari adabiyotshunoslikda ko`p vaqt bir tomonlama o`rganib kelindi. Ular o`rtasidagi ziddiyatlar ba`zan kuchaytirib talqin etildi. Bu masala xususida juda ko`p adabiyotshunos olimlarning tadqiqot va maqolalarida fikr yuritilgan. Xususan, bu masalaga oydinlik kiritishda professor A.Hayitmetov “Navoiyning forsiy maktublari” maqolasi xarakterlidir.

Ma`lumki, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o`rtasida vaqti-vaqti bilan kelishmovchiliklar, ixtiloflar bo`lib turgan. Bu, albatta, birinchi navbatda Husayn Boyqaroning feodal hukmdori ekanligi, shuningdek, ular yashab turgan davr ziddiyatlari bilan izohlanadi. Professor A.Hayitmetov yuqoridagi maqolasida Navoiyning bir forsiy maktubi haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, uning tarjimasini keltiradi. Bu maktub mazmunida ham shoh va shoir oralarida biroz sovuqchilik tushganligiga ishora bor: “Men o`z gunohlarimga iqorman. Ammo men bilmayman, men qanday nojo`ya ish qildimki, siz o`zingizni mendan tortib qoldingiz...” Sultonning javobi she`riy tarzda keltirilgan:

Tolibidin matlub ranjisa, bu unga og`ir gap emas,
Ishqilib matlubdan tolib ranjimasa bo`lgani¹.

Bu o`rinda Husayn Boyqaro – Majididdin – Alisher Navoiy munosabatlarini eslash o`rinlidir. Husayn Boyqaro saroyida dastlab parvonachi, keyinroq esa ikki ming tuman pul voqeasi tufayli bosh vazirlik lavozimiga ko`tarilgan Majididdin Muhammad nihoyatda yaramas fe`l-atvorli kishi edi. Uning yaramas hatti-xarakatlaridan Navoiy anchagina aziyat chekkan edi. Umuman, Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy o`rtalarida sovuqchilik tushishi, shoirning Astrobodga hokim qilib jo`natilishi ko`p jihatdan Majididdin Muhammad tufayli ekanligi ko`p manbalarda aytib o`tilgan. Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar”

¹ Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993. 160-bet.

devonidan o`rin olgan quyidagi ikki g`azali shoirning o`z davrdagi kechinmalarining, nozik ko`ngil iztiroblarining ifodasiga o`xshaydi.

Qaysi bir tuhmatki, bizga qilmadi nisbat raqib,

Qaysi birni eshitqach qilmadi bovar habib?

Chun raqibimg`a raqib erdi habib, erdim tirik,

Naylay o`lmaykim, habibimg`a habib o`lmish raqib.

Lirik qahramonga raqib behisob tuhmat toshlarini otmoqda, bu tuhmat, ig`volarning biriga bo`lmasa, ikkinchisiga habibining ishonayotganligidan shoir hayratda. “Habib” (Husayn Boyqaro) uning raqibiga raqib ekanligidan shoirning ko`ngli to`q edi. Endi esa raqib lirik qahramonning habibiga do`st bo`lib qoldiki, bundan shoir qattiq iztirobda.

Endi “Do`st” radifli e`tibor qilaylik:

Qildi dushman rahm, baskim qildi javr izhor do`st,

Ey ko`ngul, dushman top endi, tutmag`il zinhor do`st.

Har zamon dushmanlarim ozurdadur, ey do`stlar,

Baski, har dam yetkurur menga zorg`a ozor, do`st.

Navoiyning lirik qahramoni o`z do`stining dushmanlaridanda ortiqroq jalb qilayotganligi, ko`ngliga ozor yetkazayotganligidan norozi. Bunday do`stdan, do`stning suhbatidan ko`ra dushmanga ro`baru bo`lgan ma`qulroq. Do`stining shoirga har lahza yetkazayotgan ozorlaridan hattoki, ba`zi dushmanlarning dili ranjigan.

Yuqoridagi misralarda ba`zi mubolag`ali o`rinlar bo`lsa kerak. Lekin ularda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o`rtasidagi ayrim ziddiyatli munosabatlar aks etgan deyish mumkin.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi g`azallarda Husayn Boyqaroning yana bir fazilati o`z aksini topgan. Bu hukmdorning zukko she`rshunos sifatidagi xarakter qirralaridir.

Husayn Boyqaro “Badoye ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlarining tuzilishiga bosh-qosh bo`lgan. Ularning tarkibiga kirgan she`rlarni muntazam o`qib, tahrir qilib borgan. Bu haqda “Debocha”lar shohidlik beradi. Debochalarda mubolag`ali tarzda bayon qilinsa-da, ularning zamirida real haqiqat mavjuddir. Bu o`rinda Husayn Boyqaroning Hirot adabiy muhitining yirik vakillaridan biri ekanligi, fors-tojik tilini yaxshi bilishiga qaramay, turkiy tilga go`zal g`azallar yaratganligi va boshqa shoirlarni ham ona tilida ijod qilishga chaqirganligi, shuningdek, sohibdevon ekanligi kabi jihatlarini hisobga olsak, yuqoridagi fikrlarimiz yanada oydinlashadi. Navoiydek buyuk shoirning she`rlariga juz`iy bo`lsa-da, tuzatishlar kiritish, isloh qilish uchun katta iqtidorga ega bo`lish va she`riyatning eng nozik tomonlarini chuqur bilish zarur edi. Husayn Boyqaroda ana shu sifatlar mavjud edi,

desak xato qilmaymiz. Zero, Navoiy gʻazallarida ham Husayn Boyqaroning sheʼr ilmda nihoyatda nozikfahm kishi ekanligini taʼkidlaydi:

Ey Navoiy, xurdai nazmingga isloh istasang,
Shoh Gʻoziydan jahonda xurdadonroq yoʻq kishi.

Noziktaʼb shoh uning boshi uzra oʻz nurlarini sohib turganligi uchun ham tahlil qilingan sheʼrlar yanada nozik shakllarga toʻlgan:

Navoiy xurram nazmingni andoq aylading tahrir,
Ki, sochqay xurda boshing uzra Shohiy xurdadon koʻrgach.

Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari nihoyatda serqirra va rang-barangdir. Har ikkala ijodkor meroslarida bir-birlarining gʻazallariga oʻxshatma-tatabbular, naziralar ancha-muncha uchraydiki, ularning har qaysisi bevosita qiyosiy tahlilni talab qiladi¹. Taxmislar bogʻlash ham ana shunday oʻzaro ijodiy aloqalarning yorqin koʻrinishilari jumlasidandir.

Navoiyning Husayn Boyqaro bilan ijodiy faoliyatiga munosabati, uning shoirlik isteʼdodiga bahosi “Majolis un-nafois” tazkirasining sakkizinchi majlisida jamlangan, deyish mumkin.

Umuman, Alisher Navoiy devonlarining vujudga kelishida, shoir sheʼrlarining kelajak avlodlar uchun saqlanib qolishida Husayn Boyqaroning xizmatlari ulkan boʻlgan. Bu jihatdan shoirning quyidagi misralari ham yorqin dalildir:

Har gavhari tuprogʻi bir qatla suv yangilgʻ tushgach adam oʻlgʻay,
Gar qilmasa ishboh etibon Xusravi nazming sori parvo.

Shuning uchun ham Navoiy Husayn Boyqarodan juda xursand. Hatto kelajak avlod ham tahsin oʻqiydi. Bu oʻrinda shoirning quyidagi soʻzlari xarakterlidir: “Bu jihatdan elga olam inqiroz boʻlgʻusidir. Sulton Sohibqiron davlatiga duo qilgʻaylar va shafqatu banda parvarligʻigʻa sano degaylar”.

Umuman, Alisher Navoiy shaxsiyatini, ijodini oʻrganishda birinchi manba shoirning asarlaridir. Xususan, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini yoritishda uning boshqa asarlari qatori “Xazoyin ul-maoniy”dagi sheʼrlari ham muhim ahamiyatga egadir. Zero, shoir gʻazallarida Husayn Boyqaroning adolatli va xalqparvar hukmdor hamda zukko sheʼrshunos sifatidagi fazilatlari koʻp jihatlari bilan namoyon boʻlgan.

¹ Abdugʻafurov A. Navoiy va Husayniy / Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 138-bet.

I.2. Shoir devonlari debochalarida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari tasviri.

Alisher Navoiy o`z asarlarining debochalarida o`zi va Husayn Boyqaro o`rtasidagi munosabatlarni yoritishga katta o`rin beradi. Bu masalaga devonlarning yaratilish tarixini bayon qilish munosabati bilan qayta-qayta to`xtaladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki shoir devonlarining bunyodga kelishida shoh va shoir Husayn Boyqaroning roli beqiyos bo`lgan.

Alisher Navoiyda biror asarni yaratish haqidagi fikr birdan tug`ilmagan. Masalan, Nizomiy va Dehlaviylarning “Xamsa”siga javoban asar yaratish fikri shoirning xayolini yoshlik chog`laridan band etgan edi:

Burundin chu ko`rguzdingiz yorliq,
Baseyetti sizdan madakorliq.

Kichik erkonimda bo`lib qoshima.
Ulug` muddao soldingiz boshima¹.

Uzoq vaqtlar davomida “Xamsa” dostonidagi masalalarni har tomonlama o`ylab, pishitib yurganligi uchun ham bu ulkan asarni juda qisqa muddatda – ikki yilda yozib tugatadi. Shuningdek, Navoiyning barcha she`rlarini to`plab, ma`lum kompozitsiyaga ega bo`lgan she`riy to`plam tuzish fikri 80-yillarning o`rtalaridayoq paydo bo`lgan. Buni

¹ Alisher Navoiy. Xamsa.

“Xazoyin ul-maoniy” debochasidan o`rin olgan mana bu parcha ham tasdiqlaydi: “ Va bu avqot mobaynida (ya’ni, “Xazoyin ul-maoniy” yaatilayogan davrda) har miqdorkim, fursat toptim, xoh “Xamsa” nazmidinu xoh “Nazm ul-javohir” va “Majolis un-nafois”u “Zubdat ul-tavorix” va soyir tasniflar ishtig`olidin hasm ul hazrat duoyi davlatig`a avqotimni sarf qildim”¹.

Ma’lumki, yuqorida tilga olingan “Xamsa” 1483-1485-yillarda, “Nazm ul-javohir” 1485-yilda, “Majolis un-nafoyis” 1490-91-yillarda yaratilgan. Navoiyning o`z ma’lumotiga ko`ra, shoir o`z asarlarini yaratish jarayonida ham ulkan she’riy to`plamga kiruvchi she’rlarini to`plash va ularni devonlarga ajratish, tahrir qilish, tuzatish, yangilarini yozib borish borasida ham ish olib borgan. Nihoyat, she’riy to`plam tuzilishini puxta o`ylab pishitgandan so`ng, 1491-yilda unga tartib berishga kirishadi.

Alisher Navoiy she’riyatining ulkan to`plami - “Xazoyin ul-maoniy” ning yaratilishida Husayn Boyqaroning xizmatlari katta bo`lgan. Bu haqda shoirning o`zi debochada dalolat beradi.

Alisher Navoiyning 1480-yildan keyingi ijodi nihoyatda sermahsul bo`ldi. Bu davrda zamonasining turli-tuman hodisalariga guvoh bo`lgan, turmushning achchiq-chuchuglarini totib ko`rgan shoir ko`nglidagi dardlarini qog`ozga to`kib soladi. Shu yo`l bilan ko`ngli biroz taskin topadi. Shoir shu tariqa oz vaqtda ko`p she’r aytilganligini ta’kidlar ekan, ular “ikki murattab bo`lg`on devonlardin” “adadi aksar” ekanligini aytib, ularni to`plab, devon tartib berishni o`ylaydi. Lekin Navoining sog`ligi yomonlasha boshlaydi. Chunki saroydagi fisqu-fujurlar, fitnalar va ulkan ijodiy mehnat Navoiyga ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan qattiq ta’sir qilar edi. “Chun ul tarixdin muddate o`tdiyu, ul vaqtdin fursate aro kirdi, falak havodisining ul qattig` esadurg`on sarsari taskin tutgan va ul ranju tashvishidin yillar ranjurliq tortqan tandek, balki jonidin mahjur qolg`an badandek chiqtim, nabzimga harakat ma’dumi nafasimning kirar-chiqari noma’lum, tanim o`n qatla andin zaifroqkim nol va ko`nglum bir zamon o`z holida bo`lsa, yana o`n soat behol”<sup>2</sup>. Husayn Boyqaro shu davrda Navoiyga barcha she’rlarin to`plab, to`rt devon tuzish haqida topshiriq beradi: “- Ey qadimiy bandayi xosu ey boyiriy xodimi zoviy ul-ixtisos burung`i ikki devonkim, bizning hukmi xitobimiz bila murattab qilding. Andin so`ngra yig`ilg`on ash`oringu nazm rishtasig`a tortilg`on durri shahvoring adadi burung`i devonlardin ortqan chog`lig`dur va latofati xo`blar va malohati simoti mahubblar bila yana ikki devon tartib bersa bo`lurdek ma’lum bo`ladur. Emdi avlo budurkim, bu g`arib ishga ko`ngul kelturgaysen, balki hukm erurkim, bu ajoymb amrg`a

¹ Alisher Navoiy, MAT. 3-tom. Toshkent, 1988. 19-20 betlar.

² Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 11-bet.

xoma surgaysenu tafakkur xilvatgohida xayol sho`xu ra`nolar bilan bazm tuzgaysen va to falak gardish qilur bashar jinsini xayoliga kelmagan a`jubani elga ko`rguzgaysen”¹.

Husayn Boyqaro “nazm harimining xoslariyu she`r bahrining g`avvoslari”dan hech biri bunday katta Yodgor qoldirmaganligi, faqat Amir Xusrav Dehlaviy sulton Malikshoh Alp Arslonga bag`ishlab to`rt devon tartib berganligi, lekin ularning yetib kelmaganligi haqida gapirib, Navoiyga o`z she`rlarini jamlab, to`rt devon tuzishni buyuradi:

“Chun senga tavfiq madad qilipturu bu maqsudning hech kimga yig`lamagan moddasi yig`ilipturur, tilabizkim, fursatni g`animat bilgaysanu bu muddao husulig`a rag`bat qilgaysen”².

Shoh buyrug`ini eshitgan shoir unga o`z ahvolini bayon qiladi:

“Agarchi marazimg`a sihat umidi paydo bo`luptur, ammo hanuz g`izo bila sharbatkim, ichilur, yeyilur, misqol tarozusi bila tortilur va tongdin aqshomg`acha soat shishasig`a ko`z tikilur va agarchi za`fimg`a quvvat imkoni zohir bo`luptur, ammo hanuz buzug` koshonamdin chiqarg`a qo`pmoq tilasam, osilgan idbori ankabut torlari dastgirim bo`lib mada yetgarmaguncha, tebranmakka tobu tavon va haraktga maqdur, balki imkon yo`qdur...”³.

Umrining so`ngi yillarida katta tashvishlar va jiddiy ijodiy faoliyat tufayli xastalikka chalingan shoirga shoh topshirig`ini bajarish “dushvor ish” bo`lib tuyuladi. Chunki barcha she`rlarini to`plab, to`rt devonga joylashtirish ko`p vaqt talab qiladigan va mashaqqatli ish edi. Shuning uchun shoir buyruqni bajarish davomida o`ziga diqqat-e`tibor va ko`mak zarurligini aytib, shohga murojaat etadi. Husayn Boyqaro debochada ta`kidlanishicha, Navoiyni har jihatdan qo`llab-quvvatlashga, moddiy va ma`naviy yordam berishga tayyor ekanligini bayon qiladi:

“...Andoqki burung`i ikki devonning takmilida rioyatdin hech nav` tag`ofil voqi` bo`lmadi va rahnomolig`u inoyatdin g`ech turluk takosil suvrat bog`lanmadi. Emdi dag`i hamul dastur birla, balki andin ham afzunroq, ahvolingdin xabar tutulg`usidir va har oz vaqtda sarvaqtingg`i yetilgusidir. Chun za`f holing bizga zohiru paydodur, shavqatu bandanavozlig`lar bilane yerda qolsang o`tkarilgusidir va chun shikast ahvoling bizga ravshanu huvaydodur, marhamatu navosozlig`lar bila mushkiling bo`lsa hal qiling`usidir”⁴.

Husayn Boyqaroning bunday xayrixohligidan ruhlangan Navoiy “o`tgan ayyomda” va “kechkan hangomda bitilgan parishon gavharlarni takmil rishtasiga tortmoq bila” mashg`ul bo`ladi. Shoir faqat avval yozgan g`azallarini jamlab, ularni ko`zdan kechirish, ayrim

¹ Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 13-14--betlar.

² Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 14-bet.

³ Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 15-bet

⁴ Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 16-bet

tuzatishlar kiritish bilan kifoyalanib qolmaydi. Balki yana yangi gʻazallar bitib, ular yoniga qoʻshadi. Shu tariqa yigʻilgan gʻazallarni Sultoni sohibqiron huzuriga yetkazadi. Maʼlum boʻlishicha, shoh saroyidagi adabiy yigʻilishlar “oliy majlis” deb yuritilgan. Navoiy “Munshaot”dagi xatlaridan birida “Xazoyin ul-maoniy”ning musavvadasini suhbatdoshlar faxri boʻlgan Mavlono Sohib orqali “oliy majlis”ga yuborganligini bayon qiladi.

“Ul sababdin mahfarus-savohib Mavlono Sohibni qulliqqa yuborildi va ul musavvadasni oliy majlisqa yetkursin deyildi”.

Saroyda oʻtkazilib turiladigan oliy majlislarda Saʼdiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroizy kabi klassik shoirlarning gʻazallari oʻqilgan, ularning badiiyati tahlil qilingan, ular yuzasidan mubohasalar yuritilgan. Shu bilan birga, zamondosh shoirlarining yetuk asarlari ham doimiy ravishda oʻqib, tahlil qilingan, koʻpchilikning, jumladan, Husayn Boyqaroning tahsiniga sazovor boʻlgan. Bu haqda shoir “Badoye’ ul-bidoya” devoni debochasida yozadi:

“Va durarbor tiliga majolisda ba’zi gʻazaliyotim mastur boʻlur erdi”¹.

Shunisi diqqatga sazovorki, Husayn Boyqaro Navoiy sheʼrlarini oʻqish, ulardan zavq olish bilangina chegaralanib qolmagan, uni kuzatib ham borgan. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kirgan sheʼrlarini doimiy tarzda oʻqib, tahlil qilib borgan.

Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining sakkinzinchi majlisiga ilova qilingan Xusrav Dehlaiyning bayti bilan bogʻliq bahoni esga oladigan boʻlsak, Husayn Boyqaroning sheʼriy didi va zakovati naqadar kuchli va yuksak ekanligining guvohi boʻlamiz.

“Bahor kunlariningbirida, bulut oshiq koʻnglidek yosh toʻkib, toʻkilgan yoshdan maʼshuqa vaʼdasidek sezilmas iplar hosil qilganda, Xuroson mulkida turkiy va forsiyda zamonasining “malik ul-kalomi” boʻlgan Mavlono Lutfiy bu faqirga yoʻliqdi va dediki, “Bu yomgʻirning torlaridan hatto ushlab koʻrish mumkin. Amir Xusrva hinducha ashʼorida bir ajibe gʻarib maʼni aytibdur va ul budurkim: mahbub bahor kunlarida bir yoqqa borayotgan ekan, yomgʻirdan hosil boʻlgan balchiqqa toyib yiqilar chogʻidayomgʻir rishtasini ushlab, turib ketibdi. Faqir bu maʼnini eshitgach, xushhol boʻlib, Amir Xusravning bu daqiq(nafis) xayoligʻa ofarinlar oʻqidim...”

Xullas Navoiy bu goʻzal tasvir va xayoldan Lutfiy singari behad mamnu boʻladi. Husayn Boyqaro huzuridagi adabiy suhbatlardan birida Xusrav Dehlaviyning oʻsha oʻxshatishini zavq-shavq bilan taʼrif etadi. Husayn Boyqaro kulib qoʻya qoladi. Navoiy oʻz gaplarining Sulton Husaynga yoqmaganini payqaydi. yer oʻpib uning eʼtirozini soʻraydi. Shunda shoh: “YOmgʻir tomchilari yuqoridan pastga qarab tushadi. Binobarin, undan hosil boʻladigan rishta (ip) ham quyiga qarab harakat qiladi. Shunga koʻra, mahbub “yomgʻir rishta”siga osilib, oʻrnidan turib ketishi mumkin emas. Agar u yerda:

¹ Alisher Navoiy MAT. 1-tom. Toshkent, 1987 17-bet.

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam aylar madad,
Ankabuti rishta osqon bo'lsa har devorg'a.

(Shu qadar zaiflashganmanki, kulbamda o'rnimdan turmoq istasam, deorga osilgan o'rgimchak tolalari menga mada beradi), deyilsa, she'ri mantiqqa to'g'ri bo'lar edi", - deydi.

Navoiy do'sti Husayn Boyqaro zukkoligiga tahsinlar o'qib, o'z nuqsonini bo'yniga oladi va shoh shoirning haqqiga duo qiladi.

“Badoye’ ul-bidoya” deochasida dalolat berilishicha, Husayn Boyqaro yetmishinchi yillardayoq Navoiy she'rlarining tahrir bilan shug'ullangan. U baytlardagi “biror nomunosib lafz” yoki “biror nohanjor baytqa xat urub” ulardagi ba'zi nuqsonlarni bartaraf qilgan:

“va gohi iboratim qusurin tag'yir bermak bila aybdin mubarro va gohi maoniyim futurin isloh qilmoq bilan nuqsondin muarro qilur erdi. Ba'zi baytimdin biror nomunosib lafzni chiqorib, bir dasta subha ichra bir durri shahvor tortqondek biror lafz kiyurru erdi va ba'zi g'azallarindin biror nohanjor baytqa xat urib, bir buzug' dasht ichra bir qasri zarnigor yasag'ondek, biror baytqa dahl berur erdi”¹.

Bu ma'lumot Husayn Boyqaroning o'sha davrdayoq she'r ilmi masalalaridan chuqur xabardor bo'lganligidan hamda iqtidorli shoir ekanligidan darak beradi.

Husayn Boyqaro “Xazoyin ul-maoniy”dagi she'rlarni ham shoir, ham shoh sifatida ko'zdan kechirib, ularning ayrimlariga islohlari kiritgan. YA'ni g'azallarning ma'no tomonidan yoki badiiy san'atlarning qo'llanishi jihatdan “betakallufluq” va “nomunosiblig” ko'rsa, ularni bartaraf qilgan “...aytilg'an abyot barcha latoyifosor va sabt bo'lgan ash'or barcha zoroyifshiorim, ellik, oltmish yoki yuz g'azalg'a yaqin yig'ilsa erdi erdi hazrati Sultoni sohibqironning firvasaso suhbatidav u sipehrfarso hazratida hozir qilib arzg'a yetkurur erdim va ul hazrat alarg'a shafqat yuzidin boqib, qaysi ma'no sho'xiningkim tarkibi xil'atida va alfozi kisvatida betakallufluq ko'rsa, o'z ganjinayi zamiri xizonasidin munosib alfoz bila ul liboslarg'a tag'yir berib va alfoz kisvatida sanoiy' javohiridin nomunosiblig'liq ma'lum qilsa, o'z xizonai xotiri ganjxonasidin yoqutu la'li rangin va gavharu durri samin bila ul zebu ziynatqa tabdil yetkurib har g'azalni tartib yuzidin o'z o'rnig'a raqam qilur erdi”².

Yuqoridagi ma'lumotlarni “Munshaot”dagi qator maktublar ham tasdiqlaydi masalan, 30 maktubda “parishon nazmlaridin bir juz tobuqta yuborildi. Chun muborak nazarlari tushgay – isloh bila musharraf bo'lg'ay, deb yozsa, 33-maktubda “buyurg'on g'azallardin tayyor bo'lg'onlarni yuborildi. Qolg'onin tugatib borur kishidan yuborlig'ay”, deydi. Hatto

¹ Alisher Navoiy MAT. 1-tom. Toshkent, 1987 17-bet.

² Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 17-18 betlar .

ba'zi maktublarida ayrim g'azallarining matla'sini Husayn Boyqaro isloh uchun yo'llaganini yozadi.

Umuman, shoir she'rlarining birinchi o'quvchisi va tahrirchisi sifatida "ul hazratning muborak ta'bining anda ("Xazoyin ul-maoniy"da) kulliy dahli bo'lmagan" "hech juzviy juzviyot yo'qtur". Bu kabi iqtiboslarni shoir devonlari, boshqa asarlari debochasidan ko'plab keltirish mumkin.

Demak, Husayn Boyqaro "Badoye' ul-bidoya" va "Xazoyin ul-maoniy" devonlarining tuzilishiga bosh-qosh bo'lgan, ularning tarkibiga kirgan she'rlarni muntazam o'qib, ularni tahrir qilib borgan. Bu fikr, debochalarda mubolag'ali tarzda bayon etilsa-ad, uoarning zamirida real haqiat mavjuddir. Bu o'rinda Husayn Boyqaroning Hirot adabiy muhitining yirik vakillaridan biri ekanligi, fors-tojik tilini yaxshi bilishiga qaramay, turkiy tilda go'zla g'azallar yaratganligi va boshqa shoirlarin ham ona tilida ijod qilishga chaqirganligi, ushingga, sohib devon bo'lganligi singari jihatlarni hisobga olsak, fikrlarimiz yanad oydinlashadi. Navoiydek buyuk shoirning she'rlariga juz'iy bo'lsa-da, tuzatishlar kiritish, isloh qilish uchun katta iqtidorga ega bo'lish va she'riyatning eng nozik tomonlarini chuqur bilish zarur edi. Husayn Boyqaroda ana shu sifatlar mavjud edi, desak xato qilmaymiz. Zero, Navoiy g'azallarida ham H.Bning she'r ilmida nihoyatda nozikfahm kishi ekanligini ta'kidlaydi:

Ey Navoiy, xurdai nazmingga isloh istasang,

Shoh G'oziydan jahonda xurdadonroq yo'q kishi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Alisher Navoiy devonlarining bunyodga kelishida, shoir asarlarining kelajak avlod uchun saqlanib qolishida Husayn Boyqaroning xizmatlari ulkan bo'lgan. Bu Navoiyning quyidagi bayti yana bir bor tasdiqlaydi:

Har gavhari tufrog' uzra bir qatra suv yanglig' tushgach adam o'lg'ay,

Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G'oziy nazmi sari parvo.

Husayn Boyqaro Navoiy ijodiga hurmat bilan qaragan. Hatto o'z "Risola"sida bayon qilishicha, Navoiydek shoir bilan bir davrda, bir mamlakatda yashayotganidan faxrlangan¹. O'z navbatida Navoiy ham o'zining ulkan ijodiy masqdalirga erishganligi uchun Husayn Boyqarodan minnatdor. Shoir hatto Sultoni sohibqiron ostonasining jorubkashi bo'lishga ham tayyor ekanligini bayon qiladi: "Quvvatim bo'lg'anda supurgi olib, ilgim bilan va quvvatim bo'lmag'anda supurgu o'rnig'a kiprigim bila ul ostonani supurur bahonasi bila ko'zimni ul munavvar ravza tufrog'idin yoritqaymen va ul ostnani bu supurgu birla arig'u bu uyni ul surma bila yorug' tutg'aymen va bu xidmatni dunyovu oxiratim sharafi bilgaymen"².

¹ Husayn Boyqaro. Risola. Toshkent, 2000.

² Alisher Navoiy MAT. 3-tom. Toshkent, 1988 22 betlar .

Debochalardagi Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy ijodiga munosabatini yorituvchi ma'lumotlarni, xususan, shoir she'rlarining kelajak avlod uchun saqlanib qolishi yo'lidagi hatti-harakatlari va g'amxo'rliklarini ifoda etuvchi qaydlar, e'tiroflarni o'rganish navoiyshunoslikdagi muhim masalalardan biridir.

II BOB. "Tarixi muluki Ajam" asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro fazilatlarining tasvirlanishi

II 1. Masnaviyda ilgari surilgan g'oyalar va ularning Husayn Boyqaro obraziga muvofiqligi.

«Tarixi muluki Ajam» - Alisher Navoiyning eng kam o'rganilgan, lekin jiddiy o'rganishga loyiq asarlaridandir. Uning chet el va mamlakatimiz kutubxonalarida bir qancha qo'lyozma nusxalari bor. 1841-yilda mashhur fransuz sharqshunosi Katrmer bu asarni Parijda nashr etdi. Lekin «Tarixi muluki Ajam» haqida shu vaqtga qadar, bironta maxsus ilmiy tadqiqot yozilgani bizga noma'lum.

Navoiy Astrobodda hokimlik qilar ekan, har minutda Hirotga qaytishga intilar, buning uchun u Sulton Husayn Boyqarodan qayta-qayta ijozat so'rar edi. Navoiy Hirotga qaytgach, 1488-yildan 1501-yilgacha o'ndan ortiq muhim, ilmiy va adabiy asarlar yaratdi. Uning Astroboddan kelgandan so'ng, 1488 yilda birinchi yaratgan asari «Tarixi muluki Ajam» bo'ldi. Demak, Navoiy o'z ijodiy rejasida bu asarni yaratishga katta e'tibor bergan. U «Tarixi muluki Ajam»dan so'ng «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzon», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Lison ut-tayr», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarini yozdi. Bu faktlardan shu narsa ochiq ko'rinadiki, Navoiy Hirotga faqat bu shaharni

yaxshi ko'rgani uchungina emas, balki yaxshiroq ijodiy sharoitga erishish uchun, mo'ljallangan shu muhim asarlarini tezroq yozishga kirishish uchun ham oshiqqan edi.

«Tarixi muluki Ajam» Eron podshohlari tarixini yoritishga bag'ishlangan. Biroq Navoiygacha ham Eron podshohlari tarixi juda kup tarixchi va shoirlar tomonidan ba'zi o'rinlarda Navoiy asaridagiga nisbatan ham kengroq yoritilgan edi. Navoiy o'z asarini yaratishda «Tarixi Banokatiy», «Qozi Bayzoviy», «Jomeut-tavorix», «Nizom ut-tavorix», «Nasihah ul-muluk», «Tarixi Jaloliy» kabilardan to'la foydalandi, ularning nomini zikr etib o'tdi va ularga suyandi¹. Shuning uchun ham u ko'p faktlarni o'z nomidan emas, o'sha tarixchilar nomidan bayon qiladi va «derlarkim», «debdlarkim» kabi so'zlarni ishlatadi. «Tarixi muluki Ajam» Eron podshohlari haqidagi faktlar nuqtai nazaridan, boshqa tarixchilar asaridan kam farq qiladi. Shunday ekan, bu asarni yozishdan Navoiyning maqsadi nima edi? degan savol tug'iladi. Hamma asarlarini ma'lum bir maqsad bilan yozgan Navoiy, «Tarixi muluki Ajam»ni yaratishda o'z prinsipidan chekindimi? Yo'q, albatta. Buyuk shoir va mutafakkir, olim va davlat arbobi Navoiy bu asarini ham juda muhim ijtimoiy-siyosiy va adabiy maqsadlarni ko'zda tutib yozdi.

Avvalo «Tarixi muluki Ajam»ni yozish bilan Navoiy Eron podshohlari haqidagi xronikani ancha sistemaga soldi. Navoiy, hech shubhasiz, Eron podshohlari haqidagi afsonalarni va tarixiy faktlarni juda yaxshi, mukammal bilar edi. U «Tarixi muluki Ajam»dan oldin yozgan «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarni ham Eron podshohlari haqidagi tarixiy xronikalardan keng foydalangan holda yaratdi. Xususan, «Sab'ai sayyor»da Navoiy Eron podshohlari tarixiga anchagina o'rin beradi. Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da esa ana shu masalaga maxsus to'xtalgan va tarixchilarning asarlarida mavjud bo'lgan bir qancha chigallik, noaniqlik va qarama-qar-shiliklarni belgilab, ularni bartaraf qilishga intilgan.

Navoiy Eron podshohlari haqida yozilgan kitoblar ichida «Tarixi Tabariy» bilan Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»sini eng mo'tabar va mufassal asar hisoblagan, «Tarixi muluki Ajam»ni yozishda ko'proq shu manbalarga suyangan. Masalan, Navoiy Jamshidning yaxshi podshohlik qilib, so'ng kibrga berilishi, o'z suratini butlarga o'rnatib, ularga odamlarni cho'qinishga buyurishi va natijada dushmanlari tomonidan arralab o'ldirilishi haqida yozar ekan, bu faktni Tabariydan oladi: «Har oyina g'ayrati ilohi muqtaziy ul bo'ldiki, qardoshi o'g'li Zahhoki alavonini sipoh bila yibordi, to ani tutib, arra bila iki bo'lub, jismin pora-pora qildi. Tabariyda aning qatli Byurosbqa mansubdur, ammo o'zga tavorixda yo'q»². Kayoniylar sulolasining vakili Baxtunnasr haqida Navoiy: «Ammo

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 197-bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 200-bet.

Baxtunnasr ahvolidagi bag'oyat so'z ko'pdurur...»¹ deb, bu podshoh haqida «Shohnoma»ga suyangani aytadi. Gap Iskandar va Doroga kelganda, Na-voiy: «...bu dostonni (ya'ni Doro va Iskandar voqealarini — R. D.) faqir «Saddi Iskandariy»dakim, «Xamsa»ning beshinchi kitobidurur, mashruh ado qilibmen»²,— deydi. To'rtinchi tabaqa sosoniylar sulolasining vakillari: Bahrom Go'r va Xisrav Parvezlar haqida esa Navoiy butunlay mustaqil fikr yuritadi. Chunki ularning tarixini Navoiy o'zigacha o'tgan hamma tarixchi va shoirlarga qaraganda puxtaroq o'rgangan edi³.

Yuqoridagi dalillar shuni ko'rsatadiki, Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asari uning «Xamsa»si bilan yaqindan bog'langan va Navoiy ijodini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

«Tarixi muluki Ajam»ning yozilishidagi ikkinchi sabab adabiy mulohazalardan kelib chiqqan. Ma'lumki, XV asr adabiy hayotida o'zbek va fors-tojik adabiyotlari o'rtasida juda yaqin aloqalar bog'landi. O'zbek kitobxonlari fors-tojik adabiyotini bilishga intilar edilar. Fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalari Abulqosim Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, hind shoiri Xisrav Dehla-viy va boshqalarning ijodlari shu Eron mifologiyasi va tarixiy xronikalari bilan yaqindan bog'langan edi. Eron mifologiyasi va tarixiy xronikasi asoslarini yaxshi bilmasdan turib, ularning asarlarini chuqur o'zlashtirish qiyin edi. Shu bilan birga Navoiyning o'z «Xamsa»si ham, yuqorida aytganimizdek, Eron mifologiyasiga yaqin turadi. Navoiy o'zbek o'quvchilarining shunday tarixiy asarlarni yengil o'zlashtirishi uchun o'zbek tilida «Eron podshohlari tarixi»ni yozishni zarur deb topdi. Professor Ye.E.Bertels o'zining «Navoiy» kitobida «Tarixi muluki Ajam»ning asosiy yozilish sababi qilib shuni ko'rsatadi. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov ham, asar yozilishining muhim sabablaridan biri ana shu zaruriyat bo'lgan, ammo bu asosiy sabab emas, degan qarashni ilgari suradi⁴.

Olimning fikricha, «Tarixi muluki Ajam» ham Navoiyning boshqa asarlari singari asosan o'z zamonining ijtimoiy-siyosiy talablaridan kelib chiqib yozilgan. Navoiy asarda to'rt tabaqa, ya'ni to'rt sulola vakillaridan iborat Eron podshohlarining deyarli hammasiga, ya'ni birinchi afsonaviy podshoh Kayumarsdan boshlab, sosoniylarning so'nggi vakili, Eronning arablar tomonidan bosib olinishida o'ldirilgan Yazdijirdi Shahriyorgacha xarakteristika beradi, tarixda nima ish qilib, qanday nom qoldirganiga to'xtaladi. Bundan kelib chiqib, u podshoh qanday bo'lishi kerak, mamlakatni qay usulda idora qilishi, nima ishlar qilishi lozim? degan savollarga javob berishga harakat qiladi. Feodal monarxiya sharoitida bu katta

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 209-bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 217-bet.

³ Hayitmeov A. Navoiy dahosi. TOshkent, 1970. 78-bet.

⁴ Hayitmeov A. Navoiy dahosi. Toshkent, 1970. 78-bet.

ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega edi. Navoiy asarda o'zining ilg'or g'oyalarini kelajakka qarab emas, o'tmishga qarab gavdalandiradi, o'tmishdagi adolatli podshohlarni, ularning zamonini o'z davriga ob'ektiv ravishda qarama-qarshi qo'yadi va hukmdorlarni ulardan saboq olishga chaqiradi. Asarda jamiyatda tinchlik, osoyishtalik va haqiqat o'rnatish — adolatli, xalqparvar podshohlarga bog'liq, degan nazariya ilgari suriladi.

Ammo «Tarixi muluki Ajam»ning muallifi o'z oldiga asosiy vazifa qilib podshohlarning shaxsiy hayotlarini yoritishni emas, balki ularning jamiyatga xalq va mamlakat manfaatiga munosabatlarini ko'rsatishni qo'ygan. Ana shu ijobiy dalil Navoiydagi tarixni ob'ektiv tushunish tendensiyasini ko'rsatadi va uning tarixini o'rganishda ahamiyati katta. Demak, «Tarixi muluki Ajam»da Navoiyning Eron podshohlari haqida yangi material berishidan ko'ra, ularning ijtimoiy faoliyatini qanday yoritishi, qaysi masalalar nuqtai nazaridan talqin etishi muhim faktir. Biz Navoiy asari tahliliga shu tarzda yondoshganimizdagina unga to'g'ri baho bera olishimiz mumkin.

Navoiy peshdodiylar sulolasining ikkinchi podshohi Hushangni «odil va xiradmand podshoh erdi»¹, deb ta'riflaydi. Muallifning yozishicha, u birinchi bo'lib, mamlakatni ilm va qonun bilan boshqarishga uringan, birinchi bo'lib, tarixda kitob bitgan, toshdan temir chiqargan, yog'ochdan uylarga eshik yasagan, konlar topgan, otga egar yasagan, ariqlar chiqarib, yurtni obod qilgan, hayvon terisidan kiyim sifatida foydalangan, qirq yil podshohlik qilgan, ibodatni unutmagan.

Hushangdan so'ng uning o'g'li Tahmuras podshoh bo'lgan. Tahmuras davrida Marv, Isfahon, Nishopur shaharlari qurilgan, xalq qurilish va mudofaa ishlariga qattiq kirishgan. Navoiy: «Ro'za tutmok andin sunnat qoldi»², deb yozadi. Ko'p olimlar ro'za Markaziy Osiyoga Arabistondan islom bilan birga kirib kelgan deb hisoblar edilar. Navoiyning yozishicha, «forsi kitob bitmoq, bo'z to'qimoqni ul ixtiro qildi»³. Shu davrda butparastlik paydo bo'lgan. Navoiy bu haqda shunday deydi: «Va aning zamonida qattiq vabo bo'ldi. Har kimning bir sevar kishisi bo'lsa erdi, oning suratini yasab, aning birla xursand bo'lur edilar, to butparastlik munjar bo'ldi»⁴. Navoiy bu o'rinda butparastlikni qaysi mazmunda tushunadi? Ma'lumki, Eron va Markaziy Osiyoda islomgacha asosan otashparastlik keng tarqalgan edi. Navoiy esa butparastlik haqida ham gapiradi va Navoiyning so'zlaridan tosh va yog'ochdan ishlangan turlicha odam tasvirlari anglashiladi. Bizning fikrimizcha, Navoiy bu o'rinda buddaparastlikni nazarda tutadi, chunki buddaning tasvirlari juda ko'p bo'lgan. Buddizm bir vaqtlar Markaziy Osiyo va Eronda ham keng tarqalgan. Buni

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 198-bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 199-bet.

³ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 199 -bet.

⁴ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 199 -bet.

so`nggi arxeologik tekshirishlar ham tasdiqlamoqda. Demak, butparastlikning asl lug`aviy ma`nosi buddaparastlik bo`lib, keyinchalik bu termin keng ma`no kasb etgan. Lekin Navoiy buddaparastlikning kelib chiqishini ilmiy asosda tushuntirmaydi.

Tahmurasdan so`ng uning qarindoshi Jamshid podshoh bo`lgan. Navoiy Jamshidni ham adolatli, «jamolu husng`a beshubha va benazir va kamolu fazlda beadil erdi»<sup>1</sup>,— deb ta`riflaydi. U ham o`z davrida to`qish ishlariga katta e`tibor bergan, rang ishlashni, harbiy qurollar yasashni ixtiro qilgan, shaharlar o`rtasida kentlar qurdirgan va «xeili ishga qonun va qoida bunyod» qilgan. Uning davrida bir qancha ulug` binolar solingan. Bu binolar bitgach, katta bazm bo`lgan va o`sha kun «navro`z» deb atala boshlagan. Uning nima uchun va qanday o`ldirilganini yuqorida gapirgan edik. Ho`shang qirq yil, Tahmuras o`ttiz yil podshohlik qilgan bo`lsa, Navoiy: «Jamshid saltanatining zamoni yetti yuz yilg`a yetishti»<sup>2</sup>, - deydi. Bunda Navoiy Jamshid haqidagi afsonani o`zgartirmasdan, o`z holicha beradi. Aslida bir kishining yetti yuz yil podshohlik qilishiga Navoiyning o`zi ham ishonmagan bo`lishi tabiiy. O`rtada yana bir qancha podshohlarni ta`riflab bo`lib Navoiy Manuchehr degan podshohga to`xtaladi: «Ul odil podshoh erdi, Firot arig`ini ul qozdi va Iroqqa suv eltti va bog`lar va bo`stonlar tarh soldi va ashjor va gul va rayhon bog`larda ekti va ko`proq dehqoshshqqa ziynat va nazohatin ul arog`a kiyurdi»³.

Manuchehrdan so`ng landavur, bo`shang Navdar, Navdardan so`ng Afrosiyob podshoh bo`ladi. Afrosiyob mamlakat iqtisodini, xalq ahvolini yaxshilash o`rniga bosqinchilik urushlarini avj oldiradi. Uning davrida «oz yerda ma`murlik qoldi. Yig`ochlarni kesti va imoratlarni yiqti va korizlar bilan bog`larni ko`mdi»<sup>4</sup>,— deb yozadi Navoiy. Undan so`ng podshoh bo`lgan Zob bin Tahmosp esa «odil podshoh erdi. Ko`b vaqt Eronda Afrosiyob buzg`on yerlarning islohig`a mashg`ul bo`ldikim, yuz obodonlikka qo`ydi. Derlarkim, yetti yil raiyatdin xiroj olmadi...»⁵.

Biz bu o`rinda Eron podshohlarining birinchi tabaqasi- peshdodiylarning bir qancha vakillariga Navoiy tomonidan berilgan xarakteristikalar bilan tanishib o`tdik. Navoiy bundan keyingi podshohlarga ham shu taxlitda ta`rif berib boradi. Biz keltirilgan misol lardan ham Navoiyning podshohlar tarixini yoritishda qanday masalalarga e`tibor berganligini tekshirib ko`rishimiz mumkin.

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 199 -bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 200 -bet.

³ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 202 -bet.

⁴ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 203-204-betlar.

⁵ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 204 -bet.

Navoiy zikr etilgan podshohlarning faoliyatini avvalo mamlakat iqtisodiy ahvolini yuksaltirish, xalqning moddiy turmushini yaxshilash, ilm va madaniyatni rivojlantirish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash uchun nima ish qildi yoki bunday ishlarning o`r-niga Afrosiyob singari buzg`unchilik ishlarini olib bordimi? Mamlakatni adolat bilan boshqardimi yoki adolatsizlik bilanmi? degan muhim ijtimoiy masalalardan kelib chiqib xarakterlaydi. Navoiy podshohlarning tarixdagi rolini ularning qonli urushlari, buzg`unchiliklari bilan o`lchamaydi, balki kitob bitgani, toshdan temir chiqarganligi, yog`ochdan uylarga eshik yasatganligi, konlar topishi, ariqlar chiqarib, yurtni obod qilganligi, shahar va kentlar qurgani, to`qimachilikni ixtiro qilganligi, katta binolar qurganligi, bog`u bo`stonlar yaratganligi, dehqonchilikni, hunarmandchilikni rivojlantirishga ahamiyat berganligi va hokazolar bilan belgilaydi. Navoiy insoniyat tarixida yaratilgan barcha ixtirolar va sodir bo`lgan voqealarning hammasini podshohlarga nisbat berib, tarixni podshohlar va qahramonlarga bog`lab yoritadi. Ammo u jamiyat taraqqiyoti tarixida podshohlarning urushlari, kayf-safolari muhim emas, balki ularning iqtisod, ilm, madaniyatga ahamiyat berishlari muhimdir, degan g`oyani ilgari suradi. Bu esa Navoiyning tarixga qarashidagi, shubhasiz, ilg`or tomonidir. Navoiy tomonidan masalaning bunday hal qilinishi zamonaviy ahamiyatga ega edi. Chunki Navoiy bu bilan tem-riylar orasida XV asrning ikkinchi yarmida toj-taxt uchun olib borilayotgan to`xtovsiz urush-janjallarni xalq va mamlakatga zarar deb topar, temuriy hukm-dorlarni mamlakat iqtisodi, fan va madaniyatini rivojlantirishga da`vat etar edi.

II.2. Masnaviyda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarining yoritilishi.

Navoiy oldingi asarlaridagi singari «Tarixi muluki Ajam»da ham xadqparvarlik va insonparvarlik pozitsiyasida turib, adolatli podshohlarga ijobiy baho beradi. Adolatsiz. zolim podshohlarni qoralaydi. Peshdodiylerden: Hushang, Jamshid, Faridun, Manuchehr, Tahmosp;

sosoniylardan: Bahrom Go`r, Feruz, No`shiravon, Turondux kabilar, Navoiy fikricha, odil podshoh bo`lganlar, ular mamlakat va xalq ahvolini yaxshilash uchun harakat qilganlar, xalq ham bunday podshohlarni qo`llab-quvvatlagan va natijada tarixda ularning yaxshi nomlari qolgan. Masalan, Navoiy Firuz binni Yazdijurd haqida yozadi: «Firuz binni Yazdijurd oqil va musulmon va kordon va odil podshoh erdi. Adolat bila mamlakatni obod qildi va rioyat bila raiyagni shod. Ani saltanati zamonida yeti yil qahat voqe bo`ldi. Rioyo zimmasidin xiroj soqit qildikim, bu yeti yil hech kishidin hech nima g`aniya tilamadi...»¹ Navoiyning yozishicha, u yaxshi podshoh bo`lgani uchun, tarixda «Firuz» nomi bilan bog`langan juda ko`p narsalar qolgan.

Firuzdan so`ng podshoh bo`lgan No`shiravon ham o`z nomi bilan «No`shiravoni odil» bo`lgan va Ardasher Bobokon degan podshohniig yo`lini tutib, uning «vasiyatnomalarini mutolaa qilib, ul dastur bila amal qilurg`a murtakib bo`ldi, ammo adolat va shafqat qonunini dog`i andin ortturdi, adl jo`yboridin mulk bo`s-tonig`a farog`at ashjori shodob bo`ldi va insof tarti-bidin, amniyat ashjoridin farog`at ochilur erdi va osoyish asmori yetildi»².

No`shiravon kabi podshohlar haqidagi bu xil gaplarni tarixiy haqiqat bilan solishtirib ko`rganimizda, ularning odilligi, albatta, juda nisbiy bo`lib chiqadi. Masalan, No`shiravon yirik yer egalariga qarshi Mazdak rahbarligida ko`tarilgan mashhur qurolli qo`zg`olon natijasida yuz bergan sharoitda otasi Qubodning o`rniga podshoh ko`tarilgan bo`lib, u bu qo`zg`olonni qonga botirishda katta rol o`ynagan, shu bilan birga, bu kuchli xalq harakatidan o`ziga saboq olib, o`z mavqeini mustahkamlash niyatida, jamiyatning ayrim tabaqalariga, xususan, zardusht ruhoniylarga, davlat xizmatini bajaruvchilarga bir qancha imtiyozlar bergan va buning evaziga shu tabaqalarning vakillari uni «odil» deb atay boshlaganlar. Garchi tarixiy haqiqat shunday bo`lsa-da, Navoiyning tarixdan shunday misollar keltirib, adolat g`oyasini ilgari surishi, o`z asarida shu yo`l bilan temuriylarni davlatni adolatli idora qilishga ishora qilishi muhim ijobiy jihat edi.

Navoiy ashkoniylar sulolasining so`nggi vakili Doro III ni o`ta zolimlikda ayblaydi va uning taxtini odil podshoh Iskandar tortib olganini oqlaydi, Navoiyning fikricha, mamlakat taxtiga zolim Doroga qaraganda» odilroq bo`lgan makedoniyalik Iskandarning ega bo`lishi to`g`ri va bu xalq, yurt manfaatiga ham yaxshidir. Navoiy shu yo`sinda No`shiravon, Bahrom Go`r kabilarning bosqinchiliklarini ham oqlaydi. Navoiy Iskandar haqida o`z davrida mavjud hamma adabiyotlarni ko`rib chiqqan va ularning hammasini yaxshi bilgani holda, bu o`rinda

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 238 -bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 241 -bet.

Iskandarni vali deydi-yu, lekin payg`ambarligini ishonch bilan tasdiqlamaydi va «ba`-zi unga nubuvvat isnodi qilibdurlar» deyish bilan cheklanadi.

«Tarixi muluki Ajam»da boshqa tarix kitoblaridagidek, Iskandar kabi podshohlarning harbiy yurishlari uzundan-uzoq tasvirlanmasligi, bunday faktlarga juda kam o`rin berilishi ham xarakterlidir. Aftidan, Navoiy umuman har qanday urushning, ichki urushlarning ham, tashqi urushlarning ham ashaddiy dushmani bo`lgan va o`z asarida bu masalaga sal bo`lsa ham ortiqcha e`tibor berishni ongli ravishda istamagan. Lekin mamlakatning obodligi, xalqning tinchligi uchun qaysi podshoh tomonidan bo`lmasin, biron aqlli ish qilingan bo`lsa, bunday jihatlarni Navoiy, albatta, gapirib o`tgan. Masalan, Xisrav Parvez Vizantiya bilan urushda g`alaba qozonib, ularni «Chalipo» degan butini o`z poytaxti - Madoyinga olib keladi. Bu but Eron va Vizantiya munosabatlarini tobora yomonlash-tirishga sababchi bo`ladi. Parvezning qizi Turonduxt taxtga o`tirgach, u o`sha butni, «elga osiyb» yetmasin deb, Vizantiyaga qaytarib yuboradi. Natijada, Vizantiya podshosi «minnatdor bo`lub (Eron bilan R. D.) yarashadi. Xaloyiq andin (Turonduxtdan R.D.) base masrur bo`ldilar»¹, — deb yozadi Navoiy.

Navoiy o`z asarida har kuni ikki kishini o`ldirib, ularning miyasini yelkasidan o`sib chiqqan ilonlarga yedirgan mifik zolim podshoh Zahhok haqida: «Gunohlik kishi bo`lmasa, chek solib, soir xalqdin qatl qilur erdi»², — deb yozadi va «Kovai Ohangar temirchilar belga bog`lagan saxtiyonniki yig`och boshig`a bog`lab, alam qilib yurub, Zahhokdin el yuz uyurib erdilar» deydi. Navoiy bu o`rinda Zahhokni taxtdan ag`darishda yo`lboshchilik qilgan temirchi, mehnatkash xalq vakili Kovaga nisbatan chuqur hurmat bildiradi. Navoiy Shopur degan zolim podshoh haqida: «Banokatiyda debdurlarkim, aning zulmidin el anga g`avg`o qildilar va ul g`avg`oda halok bo`ldi»³, — deb yozadi va bunda xalq qo`zg`olonining kuchi va oqibatini ob`ektiv ko`rsatadi. Biroq Navoiy xalqning Kova singari yo`lboshchisi Mazdak haqida yozganda esa, hokim sinf mafkurasi ta`siriga beriladi, bu harakatning mohiyatini tushunmay uni «Mazdaki lain» deb ataydi, unga ob`ektiv baho berishda Firdavsiydan ham orqaga chekinadi. Bu Navoiyning tarixga qarashidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi⁴.

Navoiy o`z shaxsiy tajribasida mamlakatni idora qilish juda qiyin ish ekanligini ko`p sinab ko`rgan. Shuning uchun u podshohlik qilish, mamlakatni ustalik bilan boshqarish xalq va mamlakat oldida mas`ul va-zifa ekanligini o`zining «Hayratul-abror», «Saddi Iskandariy» kabi asarlarida qayta-qayta gapirib o`tgan edi. Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida shunday aqlli, tadbirli Iskandar ham podshoh bo`lishga birdan rozilik bermaganini yozadi. Navoiy

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 252 -bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 199 -bet.

³ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 231 -bet.

⁴ Hayitmeov A. Navoiy dahosi. Toshkent, 1970. 85-bet.

«Tarixi muluki Ajam»da ham podshohlarning g`ururga, kayf-safoga, xotirjamlikka berilishi oqibatida mamlakat va xalqni yomon ahvolga solib qo'yishini ko'rsatib beradi. Masalan, Bahrom Go'r odil podshoh bo'lsa ham, lekin sharob ichish va kiyik ovlashni yaxshi ko'rib, shunga berilishi natijasida, mamlakatni dushman bosib oladi. U qattiq kurashlar bilangina yana o'z taxtiga ega bo'ladi. Kitobning Bahrom Go'rga ajratilgan qismining qiziq tomoni shundaki, avtor Bahrom Go'r to'g'risida so'zlab kelib, birdan Husayn Boyqaroning Yodgor Muhammad bilan urushib, Navoiy yordami bilan Hirot taxtini qanday qilib qo'lga kiritganini gapirishga o'tadi. Navoiy «Sab'ai sayyor» dostonining oxirida esa Bahrom Go'rni ochiqdan-ochiq Sulton Husayn Boyqaroga o'xshatganini eslasak, «Tarixi muluki Ajam»da faqat Bahrom Go'r to'g'risidagi emas, balki hamma podshohlar haqidagi yaxshi va yomon gaplar avvalo Sulton, qolaversa, uning o'g'illari sha'niga qaratilganiga shubha qilmaymiz. Chindan ham bu davrda Sulton Husayn bilan uning o'g'illari o'rtasidagi murosa tobora buzila boshlagan, shimoldagi Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar davlati va Eron tobora kuchayib, Movarounnahr va Xurosonga ko'z olaytira boshlagan edilar. Yirik davlat arbobi Navoiy ularning hammasini oldindan ko'rib, temuriylarni ogohlantirgan edi. Lekin ular Navoiy fikrlarini tushunish darajasida emasliklari uchun Navoiy o'limidan so'ng ko'p vaqt o'tmay, dushmanlarning zarbasiga uchrab nom-nishonsiz yo'qolib ketdilar.

Navoiy Husayn Boyqaro tomonidan Yodgor Muhammadning qo'lga tushirilishi voqeasida o'zining ishtiroki haqida gapirib: «Ul voqeada hozir erdimkim, insho ol-lohi taolokim, mahallida sharh bila bitilgay va naqiru va qatirig`a degincha sharh qililg`ay»¹,— deydi. Bundan ko'rinadiki, Navoiy Husayn Boyqaro podshohligi tarixini, umri vafo qilsa, alohida tarixiy asar sifatida yoritishni mo'ljallagan. Muallif o'zining bu fikrini kitob oxirida Husayn Boyqaroga bag'ishlangan masnaviyda yanada ochiqroq gapiradi:

Vale azmim emdi budurkim xudoy,
Agar bo'lsa umrumg`a muhlat fizoy.
Chekib turfa tarixingga xomani,
Qilib nuktag`a tez hangomani.
Sifotingni avvaldin oxirg`acha,
Xayoloti maxfiyu zohirg`acha
Valodat kunidan tutub to bu dam,
Borin sharh ila aylagaymen raqam².

Lekin qandaydir sabablar bilan shoir bu maqsadini amalga oshira olmagan.

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 236 -bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 256 -bet.

Xullas, «Tarixi muluki Ajam» asari mana shunday gʻoyaviy ruhda yozilgan. Muallif har bir podshohning xarakteristikasini toʻrt misradan iborat sheʼr bilai tugatadi. Sheʼrlar gʻoyaviy jihatdan bir-biriga yaqin. Ikki podshoh haqidagi quyidagi toʻrtliklar buning xarakterli namunasi boʻla oladi.

Navoiy jahon mulkini oʻz mulki deb gumon qilgan bosqinchi Afrosiyob haqida yozadi:

Chu Afrosiyob oʻldi olam shahi,
Emas erdi ish sirrining ogahi.
Jahon mulkin oʻz mulki qildi gumon,
Ani ham chiqardi arodin jahon¹.

Navoiy odil shoh Zob bin Tahmosi haqida yozadi;

Chu ofoq mulkiga shoh oʻldi Zob,
Tuzotti, nekim buzdi Afrosiyob.
Erur zulmidin yaxshiroq adl ishi,
Chu qolmas na zolim, na odil kishi².

Sulton Husayn Boyqaroga bagʻishlangan ushbu masnaviyda Navoiy podshohning qanday boʻlishi kerakligi haqidagi oʻz fikrlarini yakunlamoqchi boʻlib, bu masalaga yana bir karra toʻxtaladi va podshoh haqida deydi:

Adolat uchun istasa mulku joh,
Sitam dafʼ aylargʻa cheksa sipoh,
Har ishkim boʻlur muddaosi aning,
Gʻaraz boʻlsa tengri rizosi aning,
Boʻlub saltanat taxtida faqrjoʻy,
Shah oʻlsa vale boʻlsa darveshxoʻy.

Bu misralardan koʻrinib turganidek, Navoiyning podshohlarni adolatli boʻlishga, darveshvasi boʻlishga, “faqrjoʻy” boʻlishga chaqiradi. Oʻz asarlarida qayta-qayta taʼkidlagan fikrlarini, yaʼni darveshvasi podshoh haqidagi qarashlarini yana bir qayd etadi.

Navoiy chuqur ijtimoiy siyosiy mazmunga ega boʻlgan «Tarixi muluki Ajam»ni yozish bilan oʻzbek tilida tarixiy asar yozishning nasriy namunasini ham yaratdi. Navoiyga qadar oʻzbek tilida tarixga oid shu xildagi biron asar yozilgani bizga maʼlum emas. Bu asari bilan Navoiy tarixni oʻz yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy masalalariga bogʻlab yorituvchi, tarixni yoritishda xalq va mamlakat manfaatlarini koʻzlovchi original tarixchi sifatida maydonga chiqdi.

¹ Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 204 -bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 204 -bet.

Umuman, Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asari gʻoyaviy jihatdan uning mashhur «Hayrat ul-abror», «Saddi Iskandariy», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlariga hamohang boʻlib, oʻz davrida maʼlum darajada progressiv rol oʻynadi. Bu asar Navoiy ijodini chuqurroq oʻrganishda, oʻzbek, fors-tojik tillaridagi Eron tarixiy xronikasi bilan bogʻlangan qator badiiy asarlarni tushunishda, Eron mifologiyasiga oid bir qancha muhim va chigal masalalarni toʻgʻri hal qilishda, Navoiyning oʻziga xos uslubini tekshirishda hamon katta ahamiyatga ega.

Umumiy xulosalar

Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asaridagi masnaviyda berilgan Husayn Boyqaro obrazini oʻrganish jarayonida shunday umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Husayn Boyqaro tarixiy shaxs sifatida Navoiyning eng yaqin doʻsti va maslahatchisidir. Uning podsholik saltanatida, adolatli va oqilona davlat boshqaruv ishlarida Navoiy qanchalik koʻp koʻmak bergan boʻlsa, Navoiy butun dunyoga taniqli ijodkor boʻlishida, shoh asarlarining yaratilishida Husayn Boyqaro ham xuddi shunday koʻp madad berib turgan, unga yoʻl-yoʻriq koʻrsatib turgan. Navoiyning oʻzi juda koʻp bor taʼkidlaganidek, shoir asarlarining yozilishida Husayn Boyqaro bosh-qosh boʻlgan, ularning birinchi oʻquvchi ham Sulton Husayn Boyqaro boʻlgan.

2. Husayn Boyqaro obrazining Navoiy asarlaridan joy olishini yaqqol koʻrsatadigan dalillar juda koʻp. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi debochada Navoiy Husayn Boyqaro haqida, uning devonlar yaratilishidagi xizmatlari haqida alohida toʻxtalgan boʻlsa, Navoiy “Xamsa”sidagi barcha dostonlarda Husayn Boyqaro obrazi, uning taʼrif-tavsifini keltiradi. Ushbu asarlarad berilgan fikrlarga tayangan holda ham Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari haqida maʼlumot olish mumkin.

3. Navoiy o`zining deyarli har bir asarida, hoh u lirik asar bo`lsin, hoh nasriy asar bo`lsin, adolatli hukmdor haqida, odil podshohlar haqida, ularning amallari, amalga oshirishi lozim bo`lgan ishlar haqida, odillik bilan boshqarilgan davlatning obod bo`lishi, xalqi farovon bo`lishi xususida alohida to`xtaladi. Shu an`anaga amal qilgan mutafakkir o`zining Eron shohlari tarixiga bag`ishlangan “Tarixi muluki Ajam” asarida ham odil podshohlarni ko`klarga ko`tarar ekan, asar nihoyasida berilgan maxsus masnaviyda ham xuddi jihatga katta e`tibor beradi. Unda Navoiy podshohlarni adolatli bo`lishga, darveshvash bo`lishga, “faqrjo`y” bo`lishga chaqiradi. O`z asarlarida qayta-qayta ta`kidlagan fikrlarini, ya`ni darveshvash podshoh haqidagi qarashlarini yana bir qayd etadi.

4. “Tarixi muluki Ajam” asarida berilgan masnaviyda Navoiy Husayn Boyqaroni xuddi shunday sifatlariga ega shoh sifatida talqin etadi. Shoirning ta`rificha, Sulton Husayn Boyqaroda nafaqat shohlik, balki darveshlik sifatleri ham mujassam:

Shaho keldi shahlig`, musallam sanga,

Ne shahlig`ki, darveshlig` ham sanga.

Shohni ana shu sifatlar bilan ulug`lagan shoir uning vasfini “mingdin birin” demakka imkoni yo`qligini qayd etadiki, bu ulug` Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan buyuk hurmatini bildiradi.

5. Masnaviyda shoir o`zi tomonidan yaratilgan asarlari – “Xamsa” asarini, to`rt devondan tarkib topgan she`riy kulliyotipni, “Nazmul javohir” asarini, shuningdek boshqa asarlarida berilgan katta-kichik she`riy baytlarini birma-bir qayd etar ekan, ularning hech biri shoh Husayn Boyqaro ta`rifini to`lig`icha qamrab ololmaganligini ham alohida ta`kidlaydi. Ammo “Vale barcha vasfingda mujmal edi” misrasi orqali do`sti haqida yozganlarning hech biri uning to`liq ta`rifini qamrab ololmaganligini bayon etadi.

6. Husayn Boyqaro haqida yozilgan ushbu masnaviyning yana bir xarakterli jihati shundaki, u Navoiyning ijodiy niyatlari haqida ham ma`lumot beradi. Shoir o`zining ulug` bir niyati haqida ham to`xtaladi, ya`ni xudo umr bersa, Husayn Boyqaro sifatleri, uning zohiru botini, tug`ilgan kunidan boshlab to asar yozilgan vaqtgacha amalga oshirgan ishlari, qilgan yaxshi amallari, “jahondorliq shavkati”ning sabablari xususida bir asar yozajagi haqida ma`lumot beradiki, bu alohida e`tiborga sazovordir.

7. Masnaviy nihoyasida Navoiy jahonning shahsiz bo`lishi mumkin emasligi, “zamon ahli” uchun eng adolatli shoh Husayn Boyqaro ekanligi, shuning uchun ham qiyomatgacha barcha shohlar unga ehtirom ko`rsatishlari lozimligi haqidagi romantik fikrlar bilan shoir Husayn Boyqaro xususidagi o`z qarashlarini yakunlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. I.A. Asarlar. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent, 1996.
2. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
3. Alisher Navoiy. MAT. 3-tom. Toshkent, 1989.
4. Alisher Navoiy. MAT. 4-tom. Toshkent, 1989.
5. Alisher Navoiy. MAT. 5-tom. Toshkent, 1990.
6. Alisher Navoiy. MAT. 6-tom. Toshkent, 1990.
7. Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000.
8. Abdug'afurov A.Navoiy va Husayniy / Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995.
9. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993.
10. Karimova F. "Xazoyin ul-maoniy"da Husayn Boyqaro talqini / Navoiyga armug'on. 3-kitob. Toshkent, 2003.
11. Karimova F. Debochalarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari in'ikosi / Navoiyga armug'on. 4-kitob. Toshkent, 2004.
12. Hayitmetov A. Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari haqida / Navoiy dahosi. Toshkent, 1970.
13. Husayn Boyqaro. Risola. Toshkent, 2000.
14. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u sanoyi'. Toshkent, 1981
15. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. Toshkent, 1991.
16. Haqqul, Ibrohim. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2008.
17. Hayot vasfi. Toshkent, 1989.
18. Ishoqov Yo. Navoiy poetikasi. Toshkent,1983.
19. Jumayeva S. O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini. Fil.fanlari. nomz.disser. avtoref. Toshkent, 2006
20. Jumatova S. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar: Filol. fan. nomz... diss.Toshkent, 2000.
21. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. 2-kitob. Toshkent, 1999.
22. Mustayev K.T. Poetika sveta i chislovых znakov-simvolov v «Pesne o Rolande» i «Alpamysh». Samarkand, 1995.
23. Qo'qut ota kitobi. Epos // Yoshlik. 1988. 5-son, 39-bet.
24. Rahmonov V. She'riy san'atlar. Xo'jand, 1972.
25. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 2002.
26. Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent, 1976.

Navoiy davlat pedagogika instituti O`zbek
filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Rasulova
Dilnozaning “Alisher Navoiyning “Tarixi Muluki
Ajam” asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro
timsoli” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
tashqi

T A Q R I Z

Alisher Navoiy ijodi o`zining bir qancha xususiyatlari bilan boshqa shoirlar ijodidan
ajarilib turadi. Navoiy asarlari o`zining g`oya va obrazlar olami bilangina emas, balki ularda
tarixiy shaxslar siymosining berilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham

shoir asarlarini tarixiylik nuqtayi nazaridan o`rganish, ijodkorning tarixiy shaxslar tasvirini berishda reallikka asoslanishini izchil tadqiq etish adabiyotshunoslikda keng o`rganilishi lozim bo`lgan masalalardan biridir.

Rasulova Dilnozaning “Alisher Navoiyning “Tarixi Muluki Ajam” asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro timsoli” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ana shu dolzarb mavzuga bag`ishlangan. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi “Alisher Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro obrazi tasviri” deb nomlangan. Bobning “Xazoyin ul-maoniy”da Husayn Boyqaro talqini” deb nomlangan birinchi faslida shoir lirik merosida Husayn Boyqaro obrazining berilishi, unga bag`ishlangan she`rlar, baytlar tahlilga tortilgan bo`lsa, “Shoir devonlari debochalarida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari tasviri” deb atalgan ikkinchi faslida “Badoye ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlaridagi debochalarda Husayn Boyqaro haqidagi fikrlar tahlil etiladi.

“Tarixi muluki Ajam” asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro fazilatlarining tasvirlanishi” deb nomlangan ikkinchi bob ham ikki faslga o`z ichiga olgan. “Masnaviyda ilgari surilgan g`oyalar va ularning Husayn Boyqaro obraziga muvofiqligi” deb atalgan birinchi faslida asosan, Husayn Boyqaroga xos fazilatlarining shoir tomonidan tilga olinishi hamda uning aynan qaysi jihatlariga Navoiyning katta e`tibor qaratganligi misollar yordamida yoritib berilgan. Bobning ikkinchi fasli “Masnaviyda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarining yoritilishi” deb nomlanib, bunda masnaviyda shoir va uning do`sti orasidagi munosabatlar, asosan, shoirning Husayn Boyqaroga bo`lgan munosabati tasviriga e`tibor qaratiladi.

Xulosada ish davomida ilgari surilgan fikrlar umumlashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishinida ba`zi kamchiliklar ko`zga tashlanadi: ba`zi o`rinlarda she`riy misralar batafsil tahlil qilinmagan. Ammo bu talaba tadqiqoti bo`lganligini hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqrizchi: o`zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri,
f.f.d. N.Murodova

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek
filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Rasulova
Dilnozaning "Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki
Ajam" asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro
timsoli" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Navoiy o'z asarlarida tarixiy shaxslar obraziga juda ko'p murojaat qiladi, o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlar, podshohlar, donishmandlar bilan birgalikda o'z zamondoshlari, ustozlari, safdoshlari, do'stlari obrazini ham keltiradi, ularning ta'rif-tavsiflarini bayon etadi. Tarixiy shaxslar orasida Husayn Boyqaro siymosi yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Shoir asarlarida berilgan ma'lumotlarga tayangan holda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Rasulova Dilnozaning "Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" asaridagi masnaviyda Husayn Boyqaro timsoli" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ana shu masalaga bag'ishlangan. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishda Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro timsoli berilgan deyarli barcha asarlari tahlilga tortilgan, shoir asarlarining yaratilishiga sababchi bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro xizmatlarining Navoiy tomonidan e'tirof etilishiga diqqat qaratilgan, Husayn Boyqaro siymosi bilan bog'liq baytlar tahlilga tortilgan. "Tarixi muluki Ajam" asarida berilgan masnaviy keng tahlil qilingan. Shoir tomonidan Sulton Husayn Boyqaroga xos bo'lgan sifatlar birma-bir tilga olinganligi, boshqa shohlarga o'rnak qilib ko'rsatilishi alohida ta'kidlangan.

Bitiruvchi Alisher Navoiy asarlari bilan, ular haqida yaratilgan tadqiqotlar bilan to'liq tanishgan. Mavzuni yetarlicha darajada yoritgan. Bitiruv ishida ilmiy manbalar, nazariy ma'lumotlardan atroflicha foydalanilgan. Talabaning mustaqil fikrlashi, mulohazalari talab darajasida.

Bitiruv malakaviy ishi Davlat attestatsiyasi talablariga javob beradi. Davlat attestatsiyasi komissiyasidan ishni munosib baholashlarini so'rayman.

Taqrizchi:

dotsent A.Zayniddinova